

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA KO'CHIM TURLARINING QO'LLANILISHI

Barotova Dilfuza Qurbonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20552553>

ANNOTASIYA: Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodida uchrovchi ma'no ko'chish turlari haqida ma'lumot va axborotlar berilgan. Ma'no ko'chish turlarining metafor, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi turlari ijodkor she'rlari orqali tahlilga tortilgan. Shuningdek maqolada, mavzuga doir adabiyotlar yuzasidan tahliliy va tanqiy fikrlar ham mavjud. Mazkur ish Muhammad Yusuf ijodida keng qo'llanilgan ko'chim turlarini aniqlash, tahlil qilish, mavjud tahlillarni qiyoslash kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

KALIT SO'ZLAR: Simvol, metomorfoza, semantik vazifa, lirik qahramon, qiyosiy tahlil

Kirish. O'zbek tilida ma'nolarning ko'chish turlari har xil vaziyatlar va nutqning ta'sirchanligiga ko'ra ahamiyatli hisoblanadi. O'zbek tilida ma'no ko'chish turlarining o'xshatilish, xatti-harakatlar bilan bog'liqlik orqali yoki atrof-muhitga asoslanish, qism va butunlik munosabatini ifodalash bilan yuzaga keladi. Bir so'zning boshqa bir so'zga ma'no yuklab vazifadoshlik darajasiga ko'ra yuzaga kelishi ma'no ko'chish ushullari deb nomlanadi. O'zbek adabiyoti vakillari ma'no ko'chish turlaridan unumli foydalanishadi. Misol uchun: qoshlarning kamonga, ko'priklarning nayza yoki o'qqa o'xshatilishi, yuzning esa gullarga qiyoslanishi. “Ular o'n yilki tirnoqqa zor” ushbu gapda tirnoq so'zining farzand ma'nosini o'zida tashiyotgan ekanini anglash mumkin. Umumiy olganda esa farzand va tirnoq tushunchalari mutlaqo boshqa ma'no xususiyatlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi. “Sovuq niyyat”, “sovuq nafas”, “sovuq bashara” bunday birikmalar bilan gaplarda kelganda “sovuq” so'zi o'z ma'nodan chiqib ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi. “Bir sixga qornim to'yib qoldi” bu gapda esa “six” so'zini yakka holda qo'llab ko'ramiz “six” so'zi yakka holda qo'llanganda six ya'ni temir narsa buyun ma'nolarini anglatadi va u yiyiladigan narsa emas bu so'z ham yakka holda qo'llanganda va matn ichida kelganda ikki xil ma'nolarni anglatyapti va matn ichida ko'chma ma'noda qo'llanilyapti.[1] Yuqorida aytilganidek, ma'no ko'chish usullari shu tarzda ifodalanadi. Fan tilida esa ular - metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi nomlar bilan ataladi. Mavzu yuzasidan o'zbek adabiyotining sermahsul ijodkori Muhammad Yusuf she'riyatida uchuruvchi ma'no ko'chish turlarini tahlil qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti birinchi bosqich talabasi Abdulboriyeva Gulshanoyning “Muhammad Yusuf she'riyatida metaforaning qo'llanishi” nomli maqolasi (JASSH Journal of analytical synegrgy and scientific horizon). Ushbu maqola Muhammad Yusuf she'rlarida uchrashuvchi metaforalarni topish va ularning o'ziga xosligini ifodalashda asos sifatida olindi. Sulstonova M.I, Sharipova M.H “Muhammad Yusuf ijodida qo'llangan iboralarda ma'no ko'chishi” maqola (УЧЁНЫЙ XXI века 2022). Shuningdek, Muhammad Yusufning she'riy to'plamlari, maktab darsliklari, ma'no ko'chish turlari haqidagi bir qator manbalar ham ushbu ishning tadqiqotning obyektini bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. “Muhammad Yusuf yetuk so'z san'atkor sifatida frazeologizmlardan unumli foydalanib, voqelikni real ifodalash va o'quvchiga estetik ta'sir etish vazifalarini uyg'un tarzda amalga oshirishga erishgan. Ularning ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz. Shoir ijodida qo'llangan iboralarda ma'no ko'chishining turli jihatlarini uchratish mumkin. Masalan, Bu dard yetar sizga o'la-o'lguncha, Bardoshingiz tog'dek bo'lmasa buncha? Nolang haqqa

yetib qaytib kelguncha, Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa. Misrasida “bardoshi tog`dek” iborasi chidamli, matonatli ma'nosida qo'llanilib, shakl o'xshashligini ifodalagan. Bu o'zbek tilida metoforik yo'l bilan ma'no ko'chishi deb izohlanadi. Shoir ijodida bunday iboralarning ko'p o'rinlarda ishlatilganini ko'rish mumkin.

“Singlimga maktub” nomli she'rida esa shoir lirik qahramon holatini ifodalashda “tosh ko'ngil” iborasidan foydalangan:

Qachon xat yozgandim senga bilmayman,
Qofiya bilan band bugun tosh ko'nglim.
Yolg'iz akang bo'lib, Yoningda yurmayman
Kechir meni, singlim, Kechir meni, singlim.

Bu misrada “tosh ko'ngil” iborasini shoir yuqorida ta'kidlaganimizdek, lirik qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda qo'llagan. Shu bilan Muhammad Yusufga xos yana bir xususiyatni ham keltirib o'tishimiz mumkin. Shoir o'z she'rlarida iboralarni qo'llar ekan, ularning shaklini o'zgartirgan holda keltirganini ko'ramiz.[2]

Bir bor qosh uymagan qalam qoshligim,
Sochingdagi oqlar bag'ri toshligim,
Bir shirin so'z aytmay, bitta gul tutmay,
Sen gulni so'ldirdi mening yoshligim

Ushbu misralarda Muhammad Yusufning so'z qo'llash mahoratiga guvoh bo'lish mumkin. “Sen gulni sindirdi mening yoshligim” jumalari orqali sevgan qizi, sevgan yo'lining gulga qiyoslanishi o'zbek tilida metonimiya deb nomlanadi. Bu o'rinda sevgan insoning gul deb nomlanishi, metonimiya hodisaning qayta nomlash xususiyatlariga asoslanib ifodalanmoqda.

Sen o'zing shamsu hilol,
Kuydirgi yor sohibjamol.
Sensiz osmonda yo'q,
Ma'no sanam, ma'no sanam.

“Sanam” she'ridagi ushbu misralar orqali Muhammad Yusuf mashuqasini “shamsu hilol'ga qiyoslashi natijasida metafara hodisasi yuz bergan. Asos sifatida “shams” ya'ni quyosh olinib, inson shaxsga qiyoslanmoqda.

Maqtasak yuzlarini oy deymiz,
Ko'zlarin yulduzga tenglaymiz.
O'xshashin osmondan izlaymiz,
Yo oydan tushganmi ayollar

Muhammad Yusufning “Oydan tushgan ayollar” nomli ushbu she'rida ayollar yuzlarining oyga qiyoslanishi metafara hodisasini yuzaga keltirmoqda. Belgi o'xshashlik hodisasi yuz va oy so'zlari orqali ifodalanmoqda.

Armonim bor, bu dunyoda armonim bor,
Qoq dalada otlar o'sgan o'rmonim bor.
Qizg'aldoqday boshim egik bu makonda,
Yonib yashab o'tmagan otajonim bor.

Muallif qalamiga mansub ushbu she'r bag'ishlov she'r hisoblanib “Ota” deb nomlanadi. “Qoq dalada o'tlar bosgan o'rmonim bor” jumalari orqali ota shaxsiyati ifodalanyapti. Bu esa metafara orqali amalga oshirilmoqda. “Sochingdagi oqlar bag'ri toshligim” jumalari orqali esa metafarani yuzaga keltirmoqda. Bu o'rinda mahjubasining sochlaridagi oq tolalarni “bag'ri toshligim” deya

izohlaydi. Shu o‘rinda metaforaning belgi o‘xshashlik, harakat o‘xshashligi kabilarni yodga olish lozim. “Metaforaga asosan uch guruhga ajratish mumkinligini ko‘ramiz:

1. Metafora nom ko‘chishning (deyarli) har qanday usuli (Arastu, E.Kassirer).
2. Metafora qisqargan o‘xshatish (Potebnya va uning izdoshlari).
3. Metafora nom ko‘chishning alohida bir turi (A.Vejbitskaya, N.D.Arutyunova va o‘zbek tilshunoslari).

Metafora nom ko‘chishi bilan bog‘liq (ya‘ni nom ko‘chish turlaridan biri yoki hammasi) ekanligini shu soha bilan shug‘ullanganlardan hech biri rad etmaydi, biroq nom ko‘chish turlarini noto‘g‘ri talqin etish yoki, yanada to‘g‘rirog‘i, e‘tibordan chetda qoldirish natijasida metafora nom ko‘chish bilan aloqador bo‘lmagan hodisalar (simvol, metamorfoza, ...) ham qamrab olinadi. Nom ko‘chish deganda, odatda so‘zlarning o‘zaro munosabati natijasida semantik qurilishning o‘zgarishi, semantik vazifalarning o‘z so‘z birikmasi a‘zolari o‘rtasida qayta taqsimoti, assotsiativ yoki sintagmatik qatorda munosabatda turuvchi til birliklarining o‘zaro ta‘sirlashuvi natijasida so‘z birikmasi unsurlaridan biriga yangi ma‘no berilishi tushuniladi. Demak, nom ko‘chishi so‘z birikmasi a‘zolaridan birining assotsiativ yoki sintagmatik munosabatlar natijasida yangi semantik qurilish kasb etish ekan”. [3]. Shu nuqtasizlik lozimki, o‘zbek tilshunosligida ma‘nolarning ikki xil turi mavjud. O‘z ma‘no va ko‘chma ma‘no. Abstract tarkibda matnning ichida keluvchi so‘z anglatayotgan ma‘nosini matndan tashqarida ham anglatish xususiyatiga ega bo‘lsa bunday so‘zlarga o‘z ma‘nosiga ega so‘zlari sifatida qaraladi. Muayyan tarkibiy qismda asosiy vazifasini ifodalab, mazmundan kelib chiqib ifodalayotgan tushunchaning matndan tashqari qismda ifodalay olmaslik xususiyati esa ko‘chma ma‘noga asos bo‘ladi. “Ushbu holat kundalik hayotimizda juda ko‘p uchraydi. Misol uchun: biror yomon xabar bilan kelguvchi kishiga “shum qadam” jumlasini ishlatiladi. Aslida esa bu so‘zlarni alohida-alohida tahlil qiladigan bo‘lsak bunday xususiyat yo‘q”. [4] “Ko‘p ovvora bo‘lib yurmang bir stakanga qornim to‘yadi” ushbu gapda mazmuniy jihatdan bir stakan suv insonlar chanqog‘ini qondirishi anglashilimoqda. Uslubiy jihatdan so‘zlar yakdil tahlilga olinganda esa insonning stakan bilan oziqlanishi uslubiy g‘alizlikni yuzaga keltiradi. “Bolalarim - ko‘zimning nuri” ushbu jumlada ona tomonidan farzandlar ko‘zning nuriga qiyoslanmoqda. Aslida esa farzandlarda nur, chaqnash xususiyati yo‘q.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, muhammad yusuf she‘rlarining o‘ziga xosligi ma‘no ko‘chish turlarining qo‘llanishi bilan bog‘liqdir. She‘riyatning o‘ziga xos qoidalaridan biri bo‘lgan gapda so‘zlarning o‘rni almashib qo‘llanilishi metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabilarni yuzaga keltiradi. Bu esa she‘riyatning badiiyligini yanada oshiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shermamatova S, Sobirova N, Nazirova Z. “O‘zbek tilida ma‘no ko‘chish usullari: metofara, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik” maqola. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2023, 960 b
2. Sultonova M.I, Sharipova M.H “Muhammad Yusuf ijodida qo‘llangan iboralarda ma‘no ko‘chishi” maqola (УЧЁНЫЙ XXI века 2022).
3. Mirzayeva D.I, Xojiyeva S.D “Metaforaning mohiyati va turlari” maqola. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2023, 436 b
4. Hakimova M. “Nom ko‘chish turlarini o‘qitish masalasiga doir mulohazalar”. Global ta‘lim milliy metodika taraqqiyoti.-Toshkent-2020.